SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ERGASHEVA DILAFRUZ ABDUSALOMOVNA

GOOD/BAD VA *YAXSHI/YOMON* LEKSEMALI INGLIZ VA O‘ZBEK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING PRAGMATIK HAMDA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 811.111:811512.133:81373.7

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим**

**Contents of the abstract of dissertation of Doctor of philosophy (PhD)
in philological sciences**

Ergasheva Dilafruz Abdusalomovna
Good/bad va *yaxshi/yomon* leksemali ingliz va o‘zbek frazeologik birliklarining pragmatik hamda lingvomadaniy xususiyatlari..... 3

Эргашева Дилафруз Абдусаломовна
Прагматические и лингвокультурные особенности английских и узбекских фразеологических единиц с лексемами *good/bad* и *yaxshi/yomon* 23

Ergasheva Dilafruz Abdusalomovna
Pragmatic and linguocultural features of English and Uzbek phraseological units with the lexemes *good/bad* and *yaxshi/yomon* 43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 48

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ERGASHEVA DILAFRUZ ABDUSALOMOVNA

GOOD/BAD VA *YAXSHI/YOMON* LEKSEMALI INGLIZ VA O‘ZBEK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING PRAGMATIK HAMDA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2024.1.PhD/Fil4503 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdchti.uz) hamda “ZiyoNyet” Axborot-ta’lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:	**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Tatyana Bushuy Anatolyevna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Mamatov Abdi Eshonqulovich filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil “13” noyab soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘ladi. (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (6623-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43. Tel.: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “28” oktabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “28” oktabr dagi № 56 raqamli reyestr bayonnomasi)

B.A. Xolikov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O‘.O‘. Qo‘ldoshov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv va madaniyatlararo almashinuvlarning jadal o‘sib borishi barcha sohalar singari tilshunoslikda ham o‘z aksini topmoqda va bu jarayon milliy o‘zlikni anglash, madaniyatlardagi umumiyliklar hamda milliy o‘ziga xosliklarni yanada yaqqolroq idrok etishni taqozo etadi. Bu jabhada tilshunoslikning frazeologiya bo‘limi muhim o‘rin tutadi. O‘zaro qarama-qarshi bo‘lgan yaxshilik va yomonlik tushunchalari butun olamning madaniy, axloqiy va falsafiy asoslarini tashkil etib, shu nuqtayi nazardan, jahon tilshunosligida, xususan ingliz va o‘zbek tillarida *“good”, “bad”, “yaxshi”* va *“yomon”* leksemalari ishtirokidagi frazeologik birliklarnining semantik, pragmatik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur leksemalarning frazeologik birliklar tarkibida qo‘llanishi til sohiblarining axloqiy me’yorlari, qadriyatlari va milliy tafakkuri bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Turli til oilalariga mansub bo‘lgan ingliz va o‘zbek frazeologik birliklari misolida ushbu xalqlarning tarixiy taraqqiyoti, madaniy konteksti va ijtimoiy hayoti bir-biridan farqlansa-da, tarix silsilasida insoniyatga xos universal qadriyatlar asosida ba’zi semantik-mazmuniy va funksional o‘xshashliklar ham shakllanib kelgan. Shuning uchun ushbu tillarda *“good”, “bad”, “yaxshi”* va *“yomon”* komponentli frazeologik birliklarni qiyosiy va chog‘ishtirma tahlil qilish, ularning pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini chuqur ochib berish bilan birga, umumiylik va milliylik mezonlarini ilmiy tadqiq etish zaruratini yaratadi.

Dunyo xalqaro ilmiy maydonda ezgulik hamda yomonlik konsepsiyasi talqin etilgan frazeologik birliklarning xalqlar madaniyati, milliy tafakkuri, hayot tajribasi va madaniyatlararo tafovutlarini yoritib berishda tutgan o‘rnini tavsiflashga bag‘ishlangan ishlar mavjud bo‘lib, ular nafaqat tilshunoslik, balki jamiyatshunoslik, dinshunoslik, tarix kabi fanlar bo‘yicha ham bilimlarni talab etadi. Zero til o‘zi mustaqil ravishda mavjud bo‘lmasdan, u o‘zida ayni bir xalqning tarixi, diniy qadriyatlari, dunyoqarashi kabi ma’lumotlarni namoyon etadi. Frazeologik birliklar tarkibiga kiruvchi iboralar, paremiyalarning pragmatik hamda lingvomadaniy jihatdan o‘rganilishi, bugungi globallashuv davrida muhim ahamiyatga ega. Yaxshilik va yomonlikni ifoda etuvchi frazeologik birliklarni turli noqardosh tillar materiallarida chog‘ishtirish asosida o‘rgangan ilmiy ishlar yetarli emasligi sababli, mazkur tadqiqot ishi dolzarb hisoblanadi.

Yurtimizda frazeologik birliklar va ularning leksik-semantik imkoniyatlari boshqa tillar bilan qiyosiy-chog‘ishtirma yondashuv asosida tadqiq qilingan bo‘lsa-da, aynan *good/bad* va *yaxshi/yomon* leksemalari ishtirokidagi frazeologik birliklarning semantik-pragmatik hamda lingvomadaniy jihatlari maxsus ilmiy izlanish obyekti sifatida chuqur o‘rganilmagan. Shu sababli, mazkur birliklarning ma’no, konnotatsiya va madaniy-konseptual xususiyatlarini tizimli tahlil qilish hozirgi tilshunoslikda dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Zero, *“…ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifasi”* zamirida nazariy tadqiqotlar natijalarining amaliy

natija bilan bog‘lanishini ta’minlash zaruriyati mujassamdir.[1] Buning natijasida, olib borilayotgan izlanishlar natijalari ikki va ko‘p tilli frazeologik lug‘atlar tuzishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Bugungi xalqaro munosabatlar o‘zining avj pallasiga chiqqan davrda xalqaro til bo‘lgan ingliz tilini chuqur o‘rganish, uning hali o‘rganilmagan tomonlarini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq qilishning ahamiyati yuqori hisoblanib, O‘zbekiston Respublikasida bugungi kunda yaratilgan imkoniyatlar davlat darajasidagi strategik rejalar doirasida ilmiy tadqiqotchilarning oldiga ham vazifalar qo‘yadi. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident Farmonida qayd etilgan ilmiy izlanishlarni rag‘batlantirish va innovatsiyalarni takomillashtirishga oid vazifalar tilshunoslik taraqqiyotiga ham turtki bo‘lib xizmat qiladi hamda ushbu yo‘nalishda chuqur tadqiqotlar olib borilishini tilshunos izlanuvchilar oldiga muhim vazifa qilib qo‘yadi.[2]

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli bosha me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublikada fan va texnologiyallar rivojlanishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Frazeologik birliklar, ularning xususiyatlari boyicha ko‘plab olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, rus olimlari frazeologiyaga alohida fan sifatida asos solgan hamda ko‘plab tadqiqot ishari olib borishgan: V.L.Arxangelskiy, A.V.Kunin, G.L.Permyakov, M.T.Tagiyev, N.N.Shanskiy, V.N.Telia, V.P.Jukov.[3] Yevropa olimlaridan esa

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 6-maydagi “Chet tillarni o‘qitish tizimini takomillashtrirish chora-tadbirlari” yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi // Yangi O‘zbekiston. – Toshkent, 2021. – 7 may - № 92 (348).

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // https://lex.uz/uz/docs/-5841063 (murojjat sanasi 26.07.2025)

[3] Архангельский В.Л. Устойчивые фразы в современном русском языке: основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии. – Ростов, 1964. – 299 с.; Кунин А.В. Курс фразеологии современного

U.Mider, J.Kolson, S.Granger, A.P.Kovie, G.N.Lich, Z.Koverches, V. fon Gumboldt, H.Burger, R.Mun, S.Fiedler, G.Yuli[4] va boshqalar.

Mahalliy olimlardan Sh. Rahmatullayev, A.E.Mamatov, M.X.Hakimov, B.Yu.Yuldoshev, M.Sodiqova, A.M.Bushuy, E.A.Begmatov, N.Z.Nasrullayeva[5] va boshqalarning ilmiy ishlarida frazeologik birliklarning lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari tadqiq qilingan.

Sh. Rahmatullayev o‘zbek frazeologiyasi nazariyasining asoschilaridan biri bo‘lib, uning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” asaridagi tegishli bo‘limlarda frazeologik birliklarning tavsifi, tasnifi, semantik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan. U frazeologik birliklarni turg‘unlik, ko‘chma ma’no va obrazlilik mezonlari asosida izohlaydi. Uning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da iboralar va frazeologik birliklar semantik-uslubiy tahlil asosida tasniflanib, kontekstual qo‘llanilishi aniqlab berilgan fundamental manba hisoblanadi. Rahmatullayevning tadqiqotlari o‘zbek frazeologiyasining mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishiga asos bo‘ldi va sohadagi keyingi izlanishlar uchun poydevor yaratdi. A. Mamatov o‘zbek tilshunosligida frazeologiyaning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini chuqur o‘rganib, ularni zamonaviy lingvistik talqinlar asosida tahlil qilgan. A. Mamatov frazeologizmlarni tilning obrazlilik vositasi sifatida ko‘rib, ularning milliy madaniyat va tafakkur bilan bog‘liqligini ilmiy asoslagan.[6] N.Z.Nasrullayevaning “Гендерные концепты в английской и узбекской фразеологии” nomli monografiyasida ingliz va o‘zbek tillaridagi gender aspekti bilan bog‘liq frazeologik birliklar qiyosiy-lingvistik va kognitiv yondashuv asosida har tomonlama tahlil

---

английского языка. – Москва: Высшая школа, 1970. – 381 с.; Пермяков И.И. Избранные пословицы и поговорки народов Востока. – Москва: Наука, 1968. – 378 с.; Шанский Н.М. Фразеология современного русского язык. – Москва: Ленинград, 2015. 7-издание. – 274 с.; Тагиев М.Т. Глаголная фразеология современного русского языка: Автореф.дисс. – Боку, 1967. – 53 с.; Телия В. Н. Фразеология как способ выражения национально-культурной специфики. – Москва: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.; Жуков В.П. Русская фразеология: Учебное пособие. – Москва: Высшая школа, 2006. Издю 2-е испр. и доп. – 408 с.

[4] Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport, CT : Greenwood Press, 2004. – 230 p.; Colson J.-P. Pragmatics and Phraseology // Yearbook of Phraseology. – Vol. 1. – Berlin : De Gruyter, 2010. – 156 p.; Granger S. (ed.). The International Corpus of Learner English. – Louvain-la-Neuve: Presses Universitaires de Louvain, 2002. – 350 p.; Cowie A.P. (ed.). Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. – Oxford : Oxford University Press, 1998. – 276 p.; Leech G. N. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983. – 250 p.; Kövecses Z. Metaphor: A practical introduction. – 2nd ed. – Oxford : Oxford University Press, 2010. – 378 p.; Humboldt W. von. On Language: On the Diversity of Human Language Construction and Its Influence on the Mental Development of the Human Species. – Cambridge : Cambridge University Press, 1999. – 296 p.; Burger H. Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. – Tübingen Francke Verlag, 2007. – 256 p.; Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. – Oxford : Oxford University Press, 1998. – 334 p.; Fiedler S. English Phraseology: A Coursebook. – Tübingen : Narr Francke Attempto Verlag, 2007. – 225 p.; Yule G. Pragmatics. – Oxford : Oxford University Press, 1996. – 142 p.

[5] Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: Fan, 1982. – 384 b.; Mamatov A. E. Zamonaviy lingvistika*:* O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020. – 168 b.; Йўлдошев Б. Фразеологизмларнинг матндаги прагматик имкониятларини ўрганиш // Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари: Республика илмий ва амалий анжумани материаллари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2020. – С. 45–49.; Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. — Тошкент: Ўзбекистон ССР Фан нашриёти, 1974. – 128 б.; Бушуй А. М. Формирование паремийного образа действительности // Хорижий филология. – 2016. – № 2. – С. 5–24; Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси: адабий норманинг шаклланиши ва яшаш қонуниятлари. – Тошкент: ЎзР Фанлар Академияси Тилшунослик институти, 1999. – 140 б.; Гендерные концепты в английской и узбекской фразеологии / Н. З. Насруллаева; МВиССО РУз, Самарк. гос. ин-т иностр. яз. – Ташкент: Изд-во «Навруз», 2018. – 141с.

[6] Маматов А. Хозирги ўзбек тилида фразеологизмларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2008. – 168 б.

etiladi.[7] Tadqiqotda ushbu frazeologizmlarning tarkibiy-semantik xususiyatlari, ularning tarkibidagi gender komponentlari, shuningdek, erkak va ayol obrazlarining milliy tafakkur va madaniy stereotiplar doirasidagi aks etish holatlari izchil ilmiy asosda yoritib beriladi. G.M.Umarjonova o‘zining doktorlik dissertatsiyasida o‘zbek va nemis tillaridagi *hand-qo‘l* komponentli frazeologizmlarni keng ko‘lamda chog‘ishtirma tahlil qilgan.[8]

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar instituti “Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti” kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Matn tipologiyasi hamda uning lingvistik, frazeologik va sintaktik xususiyatlari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi *good/bad* va *yaxshi/yomon* leksemalari ishtirokidagi ingliz va o‘zbek frazeologik birliklarning pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish, ularning izomorfik va allomorfik jihatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

good/bad va *yaxshi/yomon* leksemalari ishtirokidagi frazeologik birliklarni chog‘ishtirma tahlil qilish asosida ularning lisoniy-madaniy va milliy mentalitetga xos xususiyatlarini aniqlash;

milliy tafakkur va milliy ong bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan etnomadaniy qadriyatlarning inson shaxsiyatining shakllanishidagi o‘rnini tahlil etish, shuningdek, *good/bad* va *yaxshi/yomon* leksemalari ishtirokidagi frazeologik birliklar asosida yuzaga kelgan kontekstlarni tahlil qilish orqali bu birliklarning leksik-semantik va stilistik xususiyatlarini ochib berish;

good/bad va *yaxshi/yomon* leksemalari ishtirokidagi frazeologik birliklarning pragmatik mazmunini ochib berish va ekspressivlik vositalarini yoritish;

insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy muloqotda faol ishlatiladigan frazeologizmlar va paremiyalarning ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘xshashliklari hamda farqlarini aniqlash orqali ularning funksional-lingvistik va madaniy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti sifatida *good/bad* va *yaxshi/yomon* leksemalari ishtirokidagi ingliz va o‘zbek frazeologizmlar hamda paremiyalar tanlangan.

Tadqiqot predmetini *good/bad* va *yaxshi/yomon* leksemalari ishtirokidagi ingliz va o‘zbek frazeologizmlarning semantik, lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Mazkur tadqiqot ishi davomida deskriptiv tahlil, qiyosiy-chog‘ishtirma hamda kross-madaniy tahlil bilan bir qatorda, etimologik, kontekstual va statistik tahlillardan samarali foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

---

[7] Насруллаева Н.З. Гендерные концепты в английской и узбекской фразеологии: Монография. – Ташкент: Фан, 2018. – 141 с.

[8] Умаржонова Г.М. Немис ва ўзбек тилларида «hand» – «қўл» компонентли фразеологизмларнинг чоғиштирма таҳлили: Филол.фан.бўйича фалсафа докт. …дисс. – Андижон: Андижон давлат университети, 2022. – 136 б.

ingliz va o‘zbek tillarida *good/bad* va *yaxshi/yomon* leksemalari ishtirokidagi frazeologizmlarning pragmatik xususiyatlari asosida ijobiy va salbiy baholovchi leksemalar qatnashgan frazeologik birliklar nafaqat semantik, balki kommunikativ va pragmatik mezonlar asosida yoritilib, ular orqali til sohibining qadriyat tizimi, nutqdagi ekspressivlik, baholovchanlik va ijtimoiy, madaniy qarashlari dalillangan;

good/bad va *yaxshi/yomon* leksemali frazeologik iboralar madaniy-konnotativ mezonlar asosida guruhlarga ajratilib, ularning milliy tafakkurda aks etgan stereotipik obrazlari, universal va milliy mental tasavvurlari, umuminsoniy va o‘ziga xos etno-madaniy xususiyatlari asoslangan;

good/bad va *yaxshi/yomon* komponentli frazeologik birliklarning emotivlik, baholash, kinoya, ijtimoiy rol, stilistik rang, qisqalik, madaniy identifikatsiya kabi asosiy pragmatik vazifalari aniqlanib, bunday frazeologik birliklarning muloqotdagi ijtimoiy-ma’naviy yuklamasi, adresatga nisbatan pragmatik vaziyatda qo‘llanishi aniq pragmatik parametrlar asosida yoritilgan;

zamonaviy ingliz va o‘zbek badiiy matnlar tahlili asosida *good/bad* va *yaxshi/yomon* leksemali frazeologik iboralarning real kontekstdagi funksional-diskursiv xususiyatlari aniqlanib, ularning semantik, pragmatik hamda stilistik vazifalari ochib berilgan. Frazeologik birliklarning diskurs doirasida ma’no shakllanishi va muallif kommunikativ niyatini ifodalashdagi o‘rnini yoritishi orqali tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

good/bad va *yaxsh/yomon* leksemalari ishtirokidagi frazeologizmlar lingvomadaniy aspektda tahlil qilinib, ularning milliy tafakkurda aks etgan stereotipik obrazlari, universal va milliy mental tasavvurlari aniqlanib, umuminsoniy va etnomadaniy xususiyatlari taqqoslangan;

dissertatsiyada frazeologik birliklarning o‘z kontekstida qanday ijtimoiy-ma’naviy yuklama bilan ishlatilishi, kimga nisbatan va qanday vaziyatda qo‘llanishi aniq pragmatik parametrlar asosida o‘rganilgan va tasniflangan;

tahlil faqat lug‘aviy yoki maqollar asosida emas, balki real nutq amaliyoti va matn ichidagi funksionallik asosida olib borilgan yondashuv zamonaviy korpus lingvistika, diskurs tahlili va pragmatik lingvistika yutuqlarini birlashtirgan holda yangilik kiritgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo‘llanigan ilmiy yondashuvlar, metodologik usullar, nazariy ma’lumotlarning ishonchli manbalardan olinganligi, tahlilga tortilgan lisoniy materiallarning asosliligi, ishda antroposentrik paradigmaning tadqiq usullaridan foydalanilganligi, respublika, xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy, ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamlari, O‘zbekiston Respublikasi OAK ro‘yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif, va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Ushbu tadqiqot frazeologik birliklar vositasida ezgulik va yomonlik kabi universal tushunchalarning milliy tafakkurda ifodalanish mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yorituvchi

lingvomadaniy izlanishlar uchun muhim ilmiy asos yaratadi. Kontrastiv-lingvistik yondashuv doirasida ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning pragmatik funksiyalari, stilistik imkoniyatlari hamda konnotativ ma’nolari qiyosiy tahlil qilinib, tarjima, til o‘qitish va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan nazariy va amaliy xulosalar ishlab chiqiladi. Shuningdek, badiiy matnlar asosida aniqlangan yangi kontekstual frazeologik birliklarning semantik-pragmatik xususiyatlari chuqur tahlil etilib, bu jarayon o‘zbek frazeologiyasini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida boyitishga xizmat qiladi hamda tadqiqot natijalarining pragmatika, lingvomadaniyatshunoslik va frazeologiya yo‘nalishidagi keyingi ilmiy izlanishlar uchun metodologik ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari “Madaniyatlararo muloqot va tarjimashunoslik”, “Tili o‘rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Badiiy matn tahlili”, “Lingvistik tahlil metodlari”, “Qiyosiy tadqiqotlar metodologiyasi”, “Matn lingvistikasi”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kabi fanlar doirasida maxsus kurslar va seminarlar tashkil etishda, shuningdek, darsliklar hamda o‘quv qo‘llanmalar tuzishda, frazeologik izohli lug‘atlar tuzishda va ularning ustida ishlashda, dissertatsiya va ilmiy maqolalar yozishda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tilidagi *good/bad* va o‘zbek tilidagi *yaxshi/yomon* leksemali frazeologik bilriklarning pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari tadqiqi asosida:

ingliz va o‘zbek tillarida *good/bad* va *yaxshi/yomon* leksemalari ishtirokidagi frazeologizmlarning pragmatik xususiyatlari asosida ijobiy va salbiy baholovchi leksemalar qatnashgan frazeologik birliklar nafaqat semantik, balki kommunikativ va pragmatik mezonlar asosida yoritilib, ular orqali til sohibining qadriyat tizimi, nutqdagi ekspressivlik, baholovchanlik va ijtimoiy, madaniy qarashlari dalillanganligi haqidagi xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatida, xususan, agentlik tomonidan AT “Xalq banki” bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan “Mutolaa” – kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan hamda “Ibrat farzandlari” xorijiy tillarni o‘zbek auditoriyasiga va o‘zbek tilini xorijiy auditoriyaga o‘rgatishga qaratilgan loyihalarda foydalanilgan (O‘zbekiston Yoshlar Ishlari Agentligining 2025-yil 8-avgustdagi 2-13-21-4286-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida frazeologik birliklarning madaniy-konnotativ xususiyatlari asosida milliy va universal stereotipik obrazlar aniqlanib, ularning lingvomadaniy mazmuni ingliz va o‘zbek badiiy asarlarini ushbu tillarning biridan ikkinchisiga tarjima qilish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish hamda loyiha doirasida kitobxonlik klublarida badiiy asarlar tahlilida amaliy foydalanildi.

good/bad va *yaxshi/yomon* leksemali frazeologik iboralar madaniy-konnotativ mezonlar asosida guruhlarga ajratilib, ularning milliy tafakkurda aks etgan stereotipik obrazlari, universal va milliy mental tasavvurlari, umuminsoniy va o‘ziga xos etno-madaniy xususiyatlari asoslanganligi haqidagi xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2025-yillarda amalga oshishi rejalashtirilgan “Erasmus” international KA 107 Creidit mobility Key action 1

– Mobility for learners and staff – Higher education student and staff mobility” mavzusidagi loyidada keng foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 4-avgustdagi 01/4-3418-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida ezgulik va yomonlikni ifodalovchi frazeologik birliklarning madaniy-konnotativ mezonlar asosida guruhlanishi va tipologik solishtirilishi orqali ular til va madaniyat rivojiga asoslangan amaliy darslarda “Match the idiom with its definition”, “Miming culture”, “Read and guess” kabi topshiriqlarda keng foydalanildi;

good/bad va *yaxshi/yomon* komponentli frazeologik birliklarning emotivlik, baholash, kinoya, ijtimoiy rol, stilistik rang, qisqalik, madaniy identifikatsiya kabi asosiy pragmatik vazifalari aniqlanib, bunday frazeologik birliklarning muloqotdagi ijtimoiy-ma’naviy yuklamasi, adresatga nisbatan pragmatik vaziyatda qo‘llanishi aniq pragmatik parametrlar asosida yoritilgan tahlil natijalaridan AQShning Toshkent shahridagi elchixonasi hamda Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 2-avgustdagi 2300/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, diskurs tahlili va pragmatik lingvistika yutuqlarini birlashtirgan holda mavzu doirasidagi iboralarning nutq amaliyotidagi qo‘llanish mexanizmlarini aniqlash orqali loyiha doirasida lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishga ilmiy-amaliy asos yaratdi;

zamonaviy ingliz va o‘zbek badiiy matnlar tahlili asosida *good/bad* va *yaxshi/yomon* leksemali frazeologik iboralarning real kontekstdagi funksional-diskursiv xususiyatlari aniqlanib, ularning semantik, pragmatik hamda stilistik vazifalari ochib berilgan. Frazeologik birliklarning diskurs doirasida ma’no shakllanishi va muallif kommunikativ niyatini ifodalashdagi o‘rnini yoritishi orqali tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati aniqlangan natijalardan Samarqand viloyati teleradiokanalida 2025-yil 25-iyul kuni efirga uzatilgan “Assalom, Samarqand!” ko‘rsatuvini hamda 2025-yil 5-avgustdagi “Samarqand FM 105.2” radiokanalining “Kun mavzusi” eshittirishining navbatdagi sonlar ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokanalining 2025-yil 5-avgustdagi 01-07/278-son ma’lumotnomasi). Natijada, ezgulik va yovuzlikni ifoda etuvchi frazeologizmlarning qiyosiy tavsifi, ularning milliy ongda hamda tilda aks etishi tomoshabinlarga yetkizilib, ommaviy axborot vositalarida badiiy-lingvistik material sifatida qo‘llanish imkonini berdi, kontent yaratishda madaniy-ma’rifiy ilmiy-amaliy asos vazifasini bajardi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining elon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidn tashkil topgan. Ishning asosiy matni 146 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti, predmeti va materiali aniqlangan; tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiq etilishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, natijalar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Frazeologiyaning tilshunoslikda tutgan o‘rni va o‘rganilishi”** deb nomlangan birinchi bobi tilshunoslikning frazeologiya bo‘limi, uning tahlili, ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar, ularning mazmuni va ahamiyatiga bag‘ishlangan. Shu o‘rinda frazeologiya hamda frazeologik birliklar ta’rifiga to‘xtalib o‘tish joiz. Frazeologiyaning tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, bu aspekt XX asrda, aniqrog‘i Sharl Ballining *locutions phraseologiques* tushunchasi asosida tashkil topdi. Sharl Balli (1865–1947) taniqli shveytsariyalik tilshunos olim bo‘lib, Emil Benvenist va Ferdinand de Sossyurning izdoshi va zamondoshi. Balli frazeologiyaning ilmiy asoschisi sifatida tan olinadi. U *"locutions phraséologiques"* atamasini ilk bor joriy qilgan va tizimlashtirgan. Frazeologiya fani mazkur *"locutions phraséologiques"* atamasi rus leksikologiyasi hamda kesikografiyasiga 1930-1940 yillarda kirib kelgan vaqtdan boshlab fan sifatida shakllandi hamda muvofiq ravishda Sharqiy Yevropa mamlakatlarida rivojlanishda davom etdi. 1960-yillarning oxirlariga kelib, nemis, shu bilan birgalikda ingliz tilshunosligida ham o‘z o‘rnini egallay boshladi.[9] A. Kunin (1909–1996) – frazeologiya bo‘yicha izchil ilmiy ishlar olib borgan, frazeologik birliklarning tasnifi va tahlili bo‘yicha muhim kashfiyotlar yaratgan. Olimning 1973-yilda nashr etilgan "Фразеология" nomli kitobi eng mashhur va muhim asarlaridan biri hisoblanib, ushbu kitobda frazeologik birliklar, ularning struktura va vazifalari tahlil qilinadi, frazeologik kombinatsiyalar tasniflanib, ularning turli sintaktik shakllari va semantik xususiyatlari o‘rganiladi. Bundan tashqari, V.A.Maslova, V.L.Arxangelskiy, N.N.Amosova, Hans Yurgen Heringer kabi olimlar ushbu sohaga o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shganlar.[10] Frazeologiyaning asosiy yo‘nalishi tilning ko‘plab so‘zlashuv yoki frazeologik birlik elementlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Frazeologiya mutaxassislari uchun ilmiy tadqiqot obyekti bo‘lib, frazeologik iboralar va frazemalar xizmat

[9] Nasrullayeva N.Z. The main problems of English phraseology. – Tashkent: UzSWLU, 2004. – P. 3.

[10] Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – Москва: Издательский центр «Академия», 2001. – 208 с.; Архангельский В. Л. Устойчивые фразы в современном русском языке: основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии. – Ростов-на-Дону: Изд-во Ростовского ун-та, 1964. – 299 с.; Амосова Е. В. Основы английской фразеологии. – Ленинград: Издательство Ленинградского университета, 1963. – 268с.; Heringer, H. J. Interkulturelle Kommunikation: Grundlagen und Konzepte. 3., durchgesehene Auflage. Tübingen: A. Francke Verlag, 2010. 240 p.

qiladi. Ushbu ikki element ko‘plab tillarda, ayniqsa ingliz tilida juda keng qo‘llaniladi.

Frazeologik birliklar – “biror tushuncha yoki fikrni ifoda etuvchi, odatda, so‘zlarning turg‘un birikmasi.”[11] Iboralar odatda ko‘chma ma’noga ega, o‘z tarkibiy qismlarining alohida ma’nolaridan kelib chiqmaydigan o‘ziga xos ma’noga ega. Bu iboralar tilning boyligi va ifodaliligini oshiradi, ular ko‘pincha xalqning urf-odatlari, qadriyatlari va madaniyati bilan bog‘liq bo‘ladi. V.M.Mokienko esa frazeologik birliklar – bu yagona ma’no bilan ifodalangan, nisbatan barqaror, takroriy, ifodali leksik birikmadir", deya ta’riflaydi. Frazeologik birliklar o‘zining tuzilishi, ma’nosi, ishlatilishiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi:

Idiomalar esa bir butun ma’nosi bilan xarakterlanadi, bunday ma’no bir komponentning ma’nosi orqali boshqa komponentning ma’nosini tushunish mumkin emas, masalan, *boshi osmonda* idiomasi yaxlit frazeologik birlik bo‘lganligi sababli, unda dominant so‘z mavjud emas, ikkala so‘z birlashib, mutlaqo yangi, ko‘chma ma’no kasb etadi. Shuningdek, Amosova frazeologik bog‘lanishlarga e’tibor qaratgan, bu esa frazeologiya nazariyasini, ayniqsa, derivatsiya borasida boyitgan."

Maqollar – Archer Teylor maqolni shunday ta’riflaydi: “Maqol – qisqa shakldagi va umumiy haqiqatni ifodalovchi, u haqda tasavvur uyg‘otadigan gapdir ("A proverb is a saying that presents a general truth in a concise and imaginative way."). Taylorning fikriga tayanidigan bo‘lsak, maqollarda ijtimoiy tajriba va umumiy donolik qisqa va lo‘nda holda ifodalanganligi haqidagi fikr yuzaga keladi. Darhaqiqat, maqollar hayotiy haqiqatlarning qisqa, oson esda qoladigan shakli sifatida xizmat qiladi.

Fe’lli iboralar – frazali fe’llar yoki fe’lli iboralar – ingliz tilida juda keng tarqalgan bo‘lib, fe’l so‘z turkumining predlog yoki ravish bilan birikishidan hosil bo‘lgan birikma bo‘lib, ushbu komponentlar birgalikda yangi bir ma’no ifodalaydi. McCarthy va O‘Dell fe’lli iboralar to‘g‘risida shunday fikr bildiradi: “Frazali fe’llar – asosiy fe’l va bir yoki bir nechta qo‘shimcha so‘zlardan, odatda, predlog yoki ravishdan tashkil topgan ko‘p so‘zli fe’llardir. Ular ko‘pincha, o‘z tarkibiy *qismlarining ma’nolaridan oldindan taxmin qilib bo‘lmaydigan frazeologik birliktik* ma’nolarni ifodalaydi.”[12]

Metafora – nutqdagi bir obyektning boshqa bir obyektga obrazli shaklda taqqoslanishidir.[13] Metafora – ko‘pincha bir narsani boshqa narsa bilan taqqoslash orqali amalga oshirilganligi tufayli metafora vositasida tilda badiiy va tasavvurlarni yaratish imkoniyatlari kengayadi hamda bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqqoslanishda "like" yoki "as" kabi so‘zlar ishlatilmaydi. Metafora so‘zni yoki iborani yangi ma’noda ishlatadi, va bu ma’no kontekstga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, *"The world is a stage" – hayot – bu sahnadir, "Time is money"- vaqt – bu pul.*

[11]Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. 1. А–Д / Таҳр. ҳайъ.: Т. Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.; ЎзР ФА Тил ва адабиёт институти. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 27.

[12] McCarthy M., O‘Dell F. English Vocabulary in Use: Upper-Intermediate and Advanced. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – P. 134.

[13] Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – P.43 – P. VII.

Simili – ham kundalik suhbatlarda, ham adabiy tilda, shu bilan birgalikda jurnalistikada keng foydalaniladi.[14] "Like" or "as" (“kabi”) so‘zlari yordamida obyekt kimgadir, nimagadir o‘xshatilishi orqali ifodalanadi. Tarjimada o‘zbek tilida asosan “kabi” so‘zidan emas, “-dek” qo‘shimchasidan kengroq foydaliniladi. *"As busy as a bee"* – aridek tinmas; *"like a fish out of water"* - suvdagi baliqdek va hk.

Aforizmlar – yunoncha “aphorismos” so‘zidan olingan bo‘lib, “hikmatli so‘z” ma’nosini ifodalaydi. Ya’ni, aforizm – qisqa, lekin chuqur ma’noli, muallifi aniq gap. Bu janrga turli olimlar turlicha ta’rif berganlar, biroq zamonaviy aforizm tadqiqotchilarining aksariyati Frensis Bekonning aforizmik yozuvga bo‘lgan urg‘usini o‘rta asr ilm-fanining ortodoksiyasiga qarshi kurashish vositasi sifatida ta’kidlaydilar.[15] Masalan: *"Knowledge is power"* – kuch bilimda (Frensis Bekon); *"do what you love, and you’ll never work a day in your life"* – sevgan ishing bilan shug‘ullansang, o‘zingni umr bo‘yi ishlaganday his qilmaysan (Konfutsiy).

Yuqorida ko‘rib chiqilganidek, frazeologik birliklarga bir necha turdagi birliklar kiradi va ular bir-biridan o‘ziga xos jihatlar bilan farqlanadi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish lozimki, frazeologik birlik va metafora bir-biriga eng o‘xshash frazeologik birliklardan hisoblanadi.

Frazeologik birliklarning xususiyatlari, vazifalariga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular har bir xalqning tarixi, hayot tarzi, qadriyatlari, hattoki dinini bo‘yoqdor va obrazli aks ettiruvchi til birliklari hisoblanadi. Avvaolombor, madaniyatning tilda aks etishi frazeologik birliklar orqali samarali tarzda amalga oshiriladi.

Veronika Telia va uning hamkasblari ta’kidlashlariga ko‘ra, madaniyatning tilga kirib kelishi, madaniyatning bir tilda o‘z aksini topishining bir necha kanallari mavjud bo‘lib, bu kanalardan biri bu – tilning madaniy semantik qatlamidir.[16] Ya’ni, madaniy element so‘z yoki so‘z birikmasining belgilangan material yoki tarixiy reallik haqidagi ensiklopedik ma’nosiga bog‘lanib, umumiy ma’nosining bir qismiga aylanadi.

Masalan, o‘zbek tilidagi til birliklari: *karnay-surnay* (o‘zbek madaniyatida tantanali marosimlarda ishlatiladigan milliy cholg‘u asboblari), *ko‘rpacha yozmoq* (mehmon kelishini bildiruvchi urf-odatga ishora), *beshik* (faqat bolaning uxlaydigan joyi emas, balki ona mehri, milliy tarbiya timsoli). Ingliz tilida esa, *Thanksgiving turkey* (Shukronalik bayrami bilan bog‘liq bo‘lgan an’anaviy taom, oilaviy qadriyatlarni ifodalaydi), *rolling out the red carpet* (qizil gilamni o‘ramdan ochish-muhim shaxslarni tantanali kutib olish), *The American Dream* (AQSh madaniyatida erkinlik va muvaffaqiyat timsoli).

Ikkinchi kanal esa madaniy tushuncha orqali o‘tadi. Madaniy konseptsiyalar – bu abstrakt tushunchalar (masalan, o‘zbek tilidagi “g‘urur”, “hayo”, ingliz tilidagi "conscience" yoki "honour") bo‘lib, ular dunyoqarashni madaniy jihatdan aniq tarzda ifodalab beradi.

---

[14] Círculo de Lingüística Aplicada a la Comunicación (clac). – 2023. – № 29. – P. 21–43.

[15] Stephenson R. H. On the widespread use of an inappropriate and restrictive model of the literary aphorism // Modern Language Review. – 1980. – T. 75, № 1. – C. 1–17.

[16] Phraseology: Theory, Analysis, and Applications / ed. by A. P. Cowie. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – P. 168.

Biroq, asosiy kanal madaniy konnotatsiya hisoblanadi, chunki u so‘zning ham semantik qatlamini, ham konsepsiyalarini o‘z ichiga oladi.

1-jadval.

Madaniyatning tilga singishida semantik qatlam

Semantik qatlam turi	Tushuntirish	Misol
Denotativ (asosiy lug‘aviy) ma’no	So‘zning to‘g‘ridan-to‘g‘ri, asosiy lug‘aviy ma’nosi.	*"Olma"* – meva nomi.
	So‘zning hissiy, ijtimoiy yoki madaniy qo‘shimcha ma’nosi.	*"Olma"* – sog‘lik yoki hosildorlik timsoli.
Madaniy semantik qatlam	So‘z yoki iboraning milliy urf-odatlar, tarixiy hodisalar yoki madaniyat bilan bog‘liq qo‘shimcha ma’nosi.	*"Non"* – o‘zbek madaniyatida hurmat va qadr-qiymat ramzi.
Metaforik va obrazli ma’no	So‘zning ko‘chma yoki timsoliy ma’noda ishlatilishi.	*"Tog‘dek yigit"* – kuchli, baquvvat odam.

2-jadval.

Madaniyatning tilga singishida so‘z konsepsiyalari

So‘z konsepsiyalari		
So‘z yoki ibora	**Lug‘aviy (denotativ) ma’no**	**Konsepsiyalar (chuqur ma’no)**
Non (o‘zbek tilida)	Oziq-ovqat mahsuloti, bug‘doy yoki un mahsulotidan tayyorlangan taom.	Non qadrlanishi kerak, uni oyoq ostiga tashlash mumkin emas. "Non sindirish" – unashtiruv ramzi.
Tea time (ingliz tilida)	Yengil tamaddi vaqti.	Britaniya madaniyatida choy ichish faqat ichimlik emas, balki ijtimoiy an’ana va madaniy hodisa.
Beshik (o‘zbek tilida)	Chaqaloq uxlaydigan yog‘och uskuna.	Ona mehri, milliy tarbiya, avlodlar davomiyligi ramzi.
The American Dream (ingliz tilida)	AQSh madaniyatida muvaffaqiyatga erishish tushunchasi.	Erkinlik, o‘z kuchi bilan yuqoriga ko‘tarilish, imkoniyatlar jamiyati g‘oyasi.

Frazeologik birliklarning vazifalari. Frazeologik birliklar vazifalariga ko‘ra uch turga bo‘linadi: 1. muloqot-munosabat vazifasi; 2. kognitiv; 3. nominativ (nomlash) vazifasi.[17] Frazeologik birliklarning nominativ vazifasi til birliklari orqali atrof-muhitdagi obyekt va hodisalarni belgilash (nomlash) vazifasini bajaradi. Nominatsiya jarayoni frazeologizmlarning o‘ziga xos belgilaridan biri sifatida, ularning lug‘aviy va semantik mustaqilligini namoyon etadi. Bunda frazeologik birliklar real hayotdagi obyektlarni, hodisalarni yoki tushunchalarni ifodalovchi barqaror nomlar sifatida shakllanadi. Nominativ funksiyaga yaqin bo‘lgan ikkinchi muhim funksiya bu – kognitiv funksiyadir. Kognitiv funksiya frazeologik birliklar orqali inson tafakkurining va ongida shakllangan bilimlarning aks etishidan iborat. Inson atrof-muhitdagi obyektlarni til orqali emas, balki avval tafakkur orqali biladi; frazeologizmlar esa bu bilimlarni jamiyat tomonidan tasdiqlangan va kodlangan shaklda yetkazib beradi[18] Mualliflarning fikriga ko‘ra, frazeologik birliklarning kognitiv funksiyasi – bu voqelikdagi obyektlarning inson ongida ijtimoiy tarzda belgilangan shaklda aks etish jarayonidir. Bu jarayon shaxsiy emas, balki ijtimoiy xususiyatga ega: har bir individ frazeologik birliklarni yaratishda qatnashishi

[17] Nasrullayeva N.Z. The main problems of English phraseology. – Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2024. - P.74.
[18] Fiedler S. English Phraseology: A Coursebook. – Tübingen: Narr Francke Attempto Verlag, 2007. – P.29.

mumkin, biroq bu jarayon ularning oldindan mavjud bo‘lgan jamiyatdagi tajribasiga va bilimlariga tayanadi.[19]

Kognitiv jarayon faqat faktlarni bilishni emas, balki oldindan sezish (foresight), fantaziya (fantasy), tasavvur (imagination), tush (dream) va intuitsiya (intuition) kabi tafakkur faoliyatining shakllarini ham qamrab oladi.[20] Shu nuqtayi nazardan, frazeologik birliklar inson ongidagi bilimlar va tasavvurlarni sistemalashtirib, ularni muloqot jarayonida aniq va tez ifodalashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, kognitiv va nominativ funksiyalar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular kommunikativ funksiya doirasida amalga oshiriladi. Kommunikativ funksiya – bu tilning asosiy vazifasi bo‘lib, axborot uzatish va muloqot jarayonini ta’minlaydi.

Frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlari. Har qanday til birligi, jumladan frazeologik birliklar ham o‘zining pragmatik ma’no va xususiyatlariga ega. Frazeologik birliklar turg‘un semantik ma’noga ega, ammo pragmatik ma’nosi kontekst va muloqot vaziyatiga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Tilshunos G.Lich pragmatikani «ifodalar o‘zaro ma’lum bir vaziyatlarda qanday ma’noga ega bo‘lishini o‘rganish» deya ta’riflaydi.[21] Shu nuqtayi nazardan, frazeologik birliklarning ham har bir ishlatilishi kontekstga xos pragmatik ma’no qatlamlarini ochadi. Ya’ni bitta frazeologizm turli vaziyatda turlicha ta’sir va ma’no yuklab ishlatilishi mumkin. Frazeologik birliklarning ma’nosida keng konnotativ elementlar mujassam. Masalan, V.Telia frazeologizm tarkibida baholovchi (evaluativ), obrazli-motivlovchi, emotiv (hissiy-emosional) va stilistik komponentlar borligini qayd etadi[22] Uning fikricha, frazeologik birliklar til ichidagi madaniy-ma’naviy ramzlar bo‘lib, ular xalqlarning kundalik tafakkuri stereotiplarini aks ettiradi. Telia frazeologik birliklarni jamiyatdagi ma’naviy stereotiplarga mos keluvchi “etalonlar va stereotiplar” sifatida ko‘radi Shunday qilib, frazeologizmlar til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlab, xalqning an’ana va qadriyatlarini ifodalashda xizmat qiladi.

